

TAFAKKUR VA UNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Berdiyeva Lobar Norqobulovna¹

Annotatsiya. Ushbu maqolada tafakkur jarayoni, uning xususiyatlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Fikrlash faoliyati va xotiraning turli xillari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Tafakkur, nutq, bilish jarayonlari, xotira, xotira turlari, fikrlash faoliyati, mushohada,

Tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, ob'yektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. U atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarini, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayoni desak ham bo'ladi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi.

Inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mayjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o'zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarining haqiqiyligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib bilvosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqeja va hodisalarining vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega.

Inson bilish jarayonlari xotira jarayonida mustahkamlanadi. Xotira esga olish, saqlash va qayta tiklash jarayonidir. Individning o'z tajribasini esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi. Xotirasi past odam hayotining barcha sohalarida juda qiynaladi. Ko'rgan-bilganlarini, o'rganib olgan ishlarini davom ettira olmay, har safar yangidan boshlashga majbur bo'ladi. Esga olish, esda saqlash va esga tushirish va unutish xotira jarayonlari deyiladi. Xotira jarayonlarini, mexanizmlarini tadqiq qilishi hozirgi "aqli mashinalar" —kompyuterlarni ixtiro qilish, ularni takomillashtirish uchun juda muhimdir. Xotira turlari quyidagicha bo'lishi kuzatilgan: psixik faoliyikka qarab harakat xotirasi, emotsiyonal xotira, obraz xotirasi va so'z-mantiq xotirasi. Faoliyat maqsadiga qarab ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlariga ega. Eslab qolish va unutish muddatiga ko'ra qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira turlariga bo'linadi.

Xotiraning turli xillari: ayrim kasb egalari uchun hayotiy professional kasbiy ahamiyatga ega. Masalan, harakatni eslab qolish, gimnast-akrobat, raqqosa uchun, tasvirni, obrazni eslab qolish, rassom, haykaltarosh, tergovchi, konstruktor uchun, mazmunni eslab qolish, yozuvchi, shoir, xofiz uchun o'ta zarurdir.

Esda saqlash va unutish tezligiga qarab odamlarni 4 guruhgaga ajratish mumkin:

¹ Qashqadaryo viloyat PYaMO'MM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasiga katta o'qituvchisi
Tel.nomeri 998999 626 13 81



1. Tez esga oladi, sekin unutadi;
2. Sekin esga oladi, sekin unutadi
3. Tez esga oladi, tez unutadi;
4. Sekin esga oladi, tez unutadi.

Xotira kishining bilim, kasb-hunar egallashida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, odamlarni xotira sifati va turiga qarab farqlash mumkin. Masalan, obraz xotirasi, so‘z-mantiq xotirasi, his-hayajonga taalluqli emotsiyonal xotira singari xillarini farqlash mumkin. Insonning bilish jarayonlarida xayol va fantaziya muhim ahamiyatga ega. Xayol sezgi, idrok, tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, borliqni yangi bo‘yoqlarda, o‘z xohishi, istagi, tasavvuri shaklida aks etishidir. Ko‘rgan, eshitgan, qisqasi o‘z tajribasidan o‘tkazgan narsa va hodisalarini ko‘z oldiga keltirish — qayta tiklovchi, o‘z istagi, xohishi asosida yangi obrazlar yaratib tasavvur qilish — ijodiy xayol shaklida bo‘ladi. Ijodiy xayol — fantaziya deb ham ataladi.

Tafakkurning olivligi va murakkabligi shundaki, u idrokdan farqli, bevosita aks ettirish bo‘lmay, narsalar va ularning xossalari ular yo‘q paytda ham aks ettirishga imkon beradi. Masalan, Afrikaning subtropik hududlari xususida gap ketganda, umrida biror marta Afrikaga bormagan odam ham subtropiklik xossasini bilgani uchun ham ushbu axborotni tushunib, uni qabul qila oladi. Sinov paytida talaba kecha o‘qigan, laboratoriya sharoitida sinab ko‘rgan qonuniyatlar xususida xuddi ro‘parasida namoyon bo‘layotganday, obrazli qilib gapirib berishi, ro‘y bergen hodisalarini yana formulalar va statistik hisob-kitoblar vositasida isbot qilib berishi ham mumkin. Bu operatsiyalarning asosida tafakkur jarayonlari yotadi.

Miyamizga kelgan barcha o‘y-xayollar — bu fikrlardir. Normal insonni fiksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, har on, har daqiqada odam miyasi qandaydir fikrlar bilan band bo‘ladi. Ularni tartibga solish, keragiga diqqatni qaratish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni yechish — fikrlash jarayonidir.

Shunday qilib, muammo yoki jumboqlar bizni fikrlashga majbur etadi. Masalan, shunday masalani olib ko‘raylik. Sizga mixlar solingen bir karton quticha va ikkita sham, bolg‘acha berilgan. Vazifa: eshikka shamni o‘rnatib, yoqib qo‘yish kerak. Kim qanday yechadi? Albatta, birdaniga to‘g‘ri yechimga kelish qiyin. Agar qutichani bo‘shatish mumkinligi va uni shamdon sifatida eshikka qoqish mumkinligi xususida fikr kallaga kelmaguncha, yechim topish qiyin. Ayni shu masala ikki shart bilan berilgan: Bittasida quticha mixlar bilan to‘la deb aytilgan bo‘lsa, ikkinchisida bo‘sh quti deb berilgan ikkinchi holatda bolalar yechimga tezroq kelishgan.

Tafakkur bilish jarayonining eng yuksak shaklidir. U shaxsnинг ob‘yektiv voqelikdagi narsa va hodisalarini, ularning muhim xususiyatlarini, bog‘lanish hamda munosabatlarini bevosita umumlashgan holda aks ettirishdan iborat bo‘lgan aqliy jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishdan boshlanadi va hissiy bilish chegarasidan tashqariga chiqadi. Dunyonи bilish faoliyati ikki yo‘ldan borishi mumkin. Bevosita yo‘l bilan narsa va hodisalarning ayrim xossalarni sezgilar yordamida, idrok orqali narsa va hodisalarini yaxlitligicha, shuningdek, ilgari sezib idrok qilgan narsalarni ko‘z oldimizda yaqqol tasavvur qilib bilib olamiz. Bu bevosita hissiy bilishdir.

Tafakkur haqida quydagicha fikr berish mumkin. Kundalik hayotimizda tafakkur so‘zi ostida so‘z orqali fikr bildirish nazarda tutiladi. Psixologiya fanida esa bu chuqur va keng ma’noli tushunchadir. Psixologlar har qanday ruhiy jarayonni tafakkur atamasi ichiga kiritadilar, uning yordamida inson biron bir masalani yechimini izlaydi va hal etadi.

Tafakkurning boshqa turlari ham mayjud, ular ham o‘ziga yarasha masalalarga bog‘lanadi. Notanish masalaga inson duch kelar ekan va uning yechimi noaniq bo‘lsa, inson o‘zining ijodiy tafakkurini ishga



soladi. Odatda bu tafakkur turida mantiqiy va tasavvurli turlar birlashib ketadilar, lekin muhim rolni intuiciyaga bog'lashadi. Ayrim hollarda tasavvur etib harakatlanish tafakkuridan foydalaniladi. Uning o'ziga xos tarafi esa amaliy harakatlarning kiritilishidadir. Bunday tafakkurga ega insonlar haqida odatda "Qo'li gul" deb ham atashadi.

Odamlarning ehtiyojlari, hayotiy qiziqishlari va faoliyatları juda xilma - xildir. Shu sababli, odamning tafakkuri ham turli hollarda har xil turda namoyon bo'ladi. Bilish uchun kerak bo'lgan vazifalarni va har xil amaliy vazifalarni hal etishga to'g'ri kelib qolinganida, shuningdek, boshqa odamlarning fikrlarini nutq orqali va amaliy muomalada bilib olishga, tushunib olishga to'g'ri kelinganida odam o'z fikrini ishlataladi. Mana shundan ijodiy tafakkur va tushunish deb ataladigan tafakkur kelib chiqadi. Tafakkurning faolligi qay turda bo'lishiga qarab, u ixtiyoriy va ixtiyorsiz tafakkurga bo'linadi, tafakkurning umumiylashganlik darajasiga qarab, u aniq va abstrakt tafakkurga, yo'nalishiga qarab, u nazariy va amaliy tafakkurga bo'linadi.

Agarda masala mantiqiy fikr yuritish orqali hal etilsa, u holda u inson mantiqiy tafakkurdan foydalanadi. Lekin bunday tafakkurning turi barcha holatlarga birdek to'g'ri kelavermaydi. Masalan, xonada mebellarni qulay tarzda joylashtirishda bunday tafakkur turi yordam bermaydi. Bu yerda ko'z bilan chamalab, qayerda qaysi buyum qulayroq va to'g'riroq joylashtirilishi va bu boradagi turli variantlar ko'zlab chiqiladi. Bunday tafakkur turini ko'rib-tasavvur etilgan tafakkur turiga ajratishimiz mumkin. Tasavvurli tafakkur turi - ko'rgan narsalardan foydalangan holda muammo va masalalarni hal etishda foydalaniladi.

Tafakkur qilish jarayoni biror psixik elementlarning shunchaki bir-biri bilan almashinishi tarzida voqe bo'lmasdan, balki alohida aqliy operatsiyalar – biz idrok qilayotgan yoki tasavvur qilayotgan narsalar (obyektlar) ustida, biz umumiylashgan va abstrakt tushunchalarga ega bo'lgan obyektlar ustida aqliy harakatlar qilish tarzida voqe bo'ladi.

Ko'rgazmali – harakatli tafakkur real predmetlar bilan ish bajarish jarayonida ularni bevosita idrok etishga suyanuvchi tafakkur. Masalan, bola o'yinchoq ichini ko'rib, usta prymnikning u yoq-bu yoqini ko'rib fikrlaydi.

Ko'rgazmali – obruzli tafakkur esa ko'rgan – kechirgan narsalar, hodisalarining konkret obrazlari ko'z oldimizga gavdalangan chog'da ularning mohiyatini umumlashtirib, bilvosita aks ettirishimizdir. Tafakkurning bu turi kichik maktab yoshidagi bolalar uchun xosdir. Lekin katta yoshdagilarda ham uchrab turadi. Masalan, o'qituvchi darsga tayyorlanishda o'z o'quvchilarini ko'z oldiga keltirib, materialni qanday qabul qilishlarini, dars jarayonida qanday shaklni, qachon chizib ko'rsatishni, qaysi ko'rgazmali quroldan qachon, qanday foydalanish talab qilinadi.

Mantiqiy tafakkur — bu mavhum tafakkur bo'lib, so'zlar, so'zda ifodalangan bilim, g'oya va tushunchalarga tayangan holda bevosita idrokimiz doirasida bo'lmagan narsalar yuzasidan chiqargan hukmlarimiz, mulohazalarimiz bu tafakkurga misol bo'la oladi. Masalan, olam, uning noyob va murakkab hodisalarini falsafiy o'rganish faqat abstrakt tafakkur yordamida mumkin bo'lgan. Yo bo'lmasa sevgi, g'ayrat kabi so'zlarni eshitgan zahotiyooq u xususida fikr yuritamiz, lekin uni biz na ko'ra olishimiz, na his qila olishimiz, na tanovvul qila olishimiz mumkin. Shunga o'xshash so'zlarni biz faqat his qilishimiz, eshitishimiz mumkin, xolos.

Tafakkur qilish – operativ jarayondir.



Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiylashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir. Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo'ladi, real olamdag'i narsalar va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar vujudga keladi.

Taqqoslash – shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalar o'rtasida o'xshashlikni yoki tafovutni, tenglik yoki tengsizlik borligini, bir xillik yoki qarama-qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi.

Analiz – narsani (buyumlarni, hodisalarni, jarayonni) tarkibiy elementlarga, qismlarga yoki tarkibiy belgilarga bo'lish demakdir. Analiz jarayonida butunning uning qismlariga uning elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Biror moddiy narsani uning moddiy elementlariga ajratib bo'lish eng oddiy shakldagi analizdir. Stolni ayrim qismlarga bo'lish – uning oyoqlarini, yashiklarini va boshqa shu kabilarni bir-biridan ajratib olish mumkin.

Sintez – analizning aksi yoki teskarisi bo'lgan tafakkur jarayonidir.

Bu jarayon obyektning ayrim elementlarini, qismlarini, belgilarini bir butun qilib qo'shishdan iboratdir. Sintez jarayonida murakkab bir butun narsa, yoki hodisa tarkibiga kirgan elementlar, yoki qismlar tariqasida olingan buyum yoki hodisalarning shu murakkab bir butun narsa yoki hodisaga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo'shishdan iboratdir, amaliy analiz bo'lgani singari, sintez ham amaliy bo'lishi mumkin. Chunonchi, mashinaning ayrim detallari bir-biriga tegishli tarzda biriktirilganda, ya'ni ular sintez qilinganda, yaxlit, butun mashina, masalan, odimlovchi ekskavator hosil bo'ladi.

Abstraksiya – shunday bir fikrlash jarayonidirki, bunda tafakkurda aks etilayotgan bir yoki bir necha obyektlarning biror belgisi (xususiyati, harakati, holati, munosabati) shu obyekt yoki obyektlardan fikran ajratib olinadi. Bu jarayonda obyektdan ajratilgan bir belgining o'zi tafakkurning mustaqil obyekti bo'lib qoladi. Abstraksiya, odatda, analiz jarayonida yoki analiz natijasida sodir bo'ladi.

Inson butun hayoti davomida turli masalalarga va muammolarga ro'baro' keladi va ularni yechimini izlashda u tafakkurning turli qirralaridan foydalanadi. Ba'zida esa biron bir holat, muammo yoki masalani bir necha xil yo'llar bilan hal etish mumkin. Bunday holatda ham inson o'z tafakkuriga tayanib o'ziga qulay yechimlardan birini tanlaydi. Insonning masalalar yechimida qaysi yo'llardan foydalanishini o'rgangan holda, uning tafakkurining qay bir turi yaxshiroq rivojlanganligini aniqlash mumkin.

Ushbu masalani yechishda katta guruh bolasi foydalangan matematik tafakkur qulaydir. Lekin shunday masalalar borki, ularni yechishda tasavvurli tafakkurdan foydalanish foydalidir. Masalan bu geometriya masalalari bo'lishi mumkin. Ularni tez yechishda geometrik figuralarni aqlda yaxshi tasavvur eta olish kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ayrim ota-onalar o'z farzandlarining matematika, o'qish va yozuvda muvaffaqiyathi ekanliklariga butkul fikrlarini jamlaydilar. O'z farzandlarini o'yin, rasm chizish, biron narsalarni yasash, konstrukciyalashdan tezroq ajratib olishni istaydilar. Ayrim ota-onalar esa umuman bolalarga rasm darsligi kerak emas deb hisoblaydilar. Ularning fikricha: "Mening farzandimning rasm, suratlarni chizishga qobiliyati yo'q, u hech qachon rassom bo'lmaydi", - deb aytadilar.

Rasm darsi (bolalar uchun mo'ljallangan boshqa darslar singari) bola faqat shu sohaning ko'nikmalarini o'zlashtirishi uchungina mo'ljalanganmagan. Ushbu dars bolalarning rivojida ko'proq ahamiyatni kasb



etishini bilishlari lozim. Rasm darsi tasavvur etish tafakkurini rivojlantiradi, bola o'z aqli bilan turli holat va hodisalarни tasavvur etishni o'rganadi. Bu esa bolaning to'laqonli aqliy rivoji uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sod Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"
3. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil
4. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001
5. Azizxo'jaev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002-yil

